

## O‘ZBEK MILLIY QO‘SHIKCHILIGINING TARIXIY TARAQIYOTI

Musayev Norimbay Usmanovich

*Musiq ta’limi kafedrası katta o’qituvchisi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** *Maqolada xalq qo‘shiqlarining ijro yo‘ddari uning tarixiy taraqiyoti. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining ba’zi na‘munalari esa faqat bolalar ijrochiligi bilan bog‘liq jihatlari. Bolalar qo‘shiq ijrochiligi kattalar qo‘shiq ijrochiligidan farqi vao‘zbek xalq qo‘shiqlari o‘ziga xos ijrochilik usullari, harbir mahalliy uslubning ijrosi vaularning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni.*

**Kalit so‘zlar.** *Xalq qo‘shiqlari, usul, ritm, mahalliy uslublar, qo‘shiqlarning tarixi, bolalar va kattalar qo‘shiq ijrolari.*

O‘zbek xalq qo‘shiqlarini kuzatish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbeklarda terma va qo‘shiq ijrochilarining ko‘pchiligi xotin-qizlardir. Bu qo‘shiqlarning mazmunidan, tabiatidan, ba’zi iboralaridan ilg‘ab olish mumkin. Bunday qo‘shiqlarning mazmunidan ko‘pincha xotin-qizlarning turmush darajasi va ijtimoiy holatini anglasak bo‘ladi. Aksaran, o‘zbek xalq qo‘shiqlarining alla, yor-yor, kelin salom, kashta va charx qo‘shiqlari kabi turlari faqat xotin qizlar tomonidan ijro etiladi. Ularni erkaklar va bolalar deyarli kuylamaydilar. Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘sh qo‘shiqlarini esa faqat erkaklar kuylaydi. Chunki bu qo‘shiqlar dalada qo‘sh haydash va xirmonni yanchish chog‘ida kuylanadi. Qo‘shiqlar ijrosi aslida alohida mutaxas sislashuvni talab qilmaydi. Har kim tomonidan ish ustida, ko‘pchilik oldida yolg‘iz paytda, umuman, har qanday sharoitda va muhitda kuylanadi. O‘zbek xalq qo‘shiqlari ijrochilarining jinsiga qarab o‘zaro farqlanishini yuqorida ta’kidlab o‘tdik. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining ba’zi na‘munalari esa faqat bolalar ijrochiligi bilan bog‘liqdir. Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek xalq qo‘shiqchilari ijrochilarinin nafaqat jinsiga ko‘ra, balki yoshiga ko‘ra ham farqlanar ekan.

Bolalar qo‘shiq ijrochiligi kattalar qo‘shiq ijrochiligidan birmuncha farq qiladi. Binobarin, bolalar qo‘shiqlarida so‘z kuy va harakat omuxtaligi hamisha saqlanib qoladi. Bolalar qo‘shiqlarining barchasi harakat bilan omuxtalashgan bo‘ladi. Biroq bu harakatlarda raqs sanalmaydi. Chunki raqs – bu san’at ko‘rinishlaridan bo‘lib, uning yuzaga chiqishida o‘ziga xos mahorat talab etiladi. Bolalar xalq qo‘shiqlaridagi harakatlarda esa mazkur qo‘shiq mazmunidan kelib chiqib bajariladigan bolalar o‘yinlarining belgilaridir.

Ma’lumki, Xorazmda xalq og‘zaki ijodida xalfachilik san’ati mustaqil tur sifatida keng tarqalgan. U o‘zining boy an’nalariga, tarixi va o‘zigaxos xususiyatlariga ega. Xalfachilik san’ati asosan ayollar orasida keng tarqalgan bo‘lib, ijro matn va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko‘ra xilmaxillikka egadir. Xalfachilik ayollar folklori bo‘lib,

“ ichkarida” ijro etilishi, ansanblning uncha katta bo‘lmasligi repurtuarining ko‘proq turli mavzulardagi xalq qo‘shiqlari, laparlari, duetlar (aytishuvlari) shuningdek, Xorazm ishqi romantik ( “Go‘ro‘g‘li”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “ Bozirgon”, “Sayot va Hamro”, ”Xirmon Dalli”) dostonlaridan olingan parcha-qo‘shiqlar, hazil-mutoyiba, oilaviy-maishiy mavzulardagi lirik ashulalardan tashkil topadi. Xalfachilikning muhim tomonlaridan biri shuni, unga xalq og‘zaki ijodi asarlarining an‘anaviy ijro xususiyatlari bilan zamonaviy ijrochilik normalari o‘zaro uyg‘unlashib, natijada o‘ziga xos yangi oraliq bir ijro usuli paydo bo‘ladi. Xalfachilikda ijro etiladigan asarlar, albatta, kuy va soz jo‘rligida, hatto ko‘pincha harakat(raqs) bilan kuylab aytiladi. Ular o‘z kuyining rang-barangligi, ijro uslubining sho‘x va ko‘taringkiligi bilan alohida ajralib turadi.

Xalfachilikda ustoz xalfalarini ko‘plab yetishtirgan, ular matn kuy ijrosida natijada el orasida mashhur bo‘lib e‘tibor qozondilar. Elning xususan xotin-qizlar dard-u alamlari, xasrat-nadomatlari boshlariga tushgan kulfat-u dil iztiroblarini muhabbat va sadoqat, oila va tarbiya, yaxshilik , ezgulik, insoniylik tuyg‘ularini ifodalashlari bilan xalfalar og‘zaki ijodning bu turini o‘ziga xos san‘at darajasiga ko‘tardilar. Buning dalili sifatida mashhur Onabibi (ojiza bo‘lgan) xalfa, Sorabibi xalfa, Aposh xalfa, Mahfira xalfa va boshqa mashhur san‘atkor xalfalarni ko‘rsatish mumkin. Hozirda esa bu ustozlarning an‘analarini davom ettirib el-yurtga sidqi dildan sozi-so‘z bilan xizmat qilib kelayotgan Anajonbibi xalfa, Zuxra xalfa kabi xalfalar bir muncha muassasalar qoshiga birikib madaniyma‘rifiy tadbirlarning asosiy ishtirokchilariga aylandilar.

Xalfalardan iborat xalfachilik dastalarining paydo bo‘lishi esa bu san‘atning yashovchanligini ko‘rsatuvchi muhim dalildir. Xalfachilikda ijrochilar xilmaxil musiqa asboblari mahorat bilan foydalanadilar va ijroda bu musiqa asboblari o‘zaro bir-biriga mos tushadi. Binobarin, soz( garmon) yoki (akkordion), doira kabi musiqa asboblari xalfachilikda doimiy qo‘llanadi. Bugungi kunda xalfachilik san‘ati tarkibining kengayib borishi, musiqiy asboblarning qo‘llanilishi, ijroning tor doiradan chiqib kengroq ommaviylashuvi, xalfalar dasturlari va dastalarining paydo bo‘lishi ko‘plab kuzatilmog‘da. Xalfalari kabi o‘zbek xalq og‘zaki ijodi na‘munalarini kuyga solib kuylab, o‘zining beqiyos hofizasi bilan el orasida nom va shuxrat qozongan xalq ijrochilarini yurtimizning deyarli barcha go‘shalarida ko‘plab uchratish mumkin. Jumladan, bizning ko‘hna va navqiron Buxoroda ham katta-yu kichik hofizalar Oliyaxon, To‘faxon va ularning izdoshlari Buxoro xalq–kuy qo‘shiqlarini mahorat bilan ijro etib, uning dovrug‘ini keng olamga yoyishda o‘z o‘rniga ega bo‘lishdi.

Xalq qo‘shiqlarining ijrosiga har bir joyning urf-odati tabiiy sharoiti ham ma‘lum darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun xalq qo‘shiqlari turli vohalarda turlicha musiqaviy ohanglarda kuylanadi. Raqs harakatlari ham deyarli farq qiladi. Masalan, Xorazm vohasida xalq qo‘shiqlari ko‘pincha o‘ynoqi, tez sur‘atli ohangda kuylansa, Farg‘onada, aksinsa sekin sur‘at bilan jo‘shqin ohangda ijro etiladi. Buxoroda esa xalq qo‘shiqlari, asosan, dinamik ovoz bilan sekin tempdan jonli tempga o‘tib boradi. Shu

jihatdan qaraganda o‘zbek xalq qo‘shiqlarining kuylanishi bo‘yicha yurtimizning barcha vohalarida o‘ziga xos ijrochilik maktabi yaralgan va ularning har bir o‘ziga xos ijro usul va uslublariga, cholg‘u asboblari hamda raqs ko‘rinishlariga ega.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari ijrosida obro‘ qozxonang va bu borada o‘ziga xos maktab yarata olgan professional qo‘shiqchilar safi kundan- kunga ortib bormoqda, jumladan ular orasida Ota G‘iyos Abdug‘aniev, Ota Jalol Nosirov, Domla Halim Ibodov, Oliyaxon Xasanova, To‘fa Pinxasova, Muhabbat Shamaeva, Izro Malakov Ma‘di Ibodov kabilar nomini alohida tilga olish mumkin xalq qo‘shiqlari turli janrlarda va turli mazmunlarda yaratilgan bo‘lib ularni ijro etishda, albatta ijtimoiy muhit va sharoit hisobga olinadi. Shuning uchun “Alla” qo‘shig‘i hech qachon nikoh paytida yoki “Kelin salom” hech qachon beshik oldida kuylanmaydi.

Keyingi vaqtlarda shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ijrochi san‘atkorlardan kimni xalq qo‘shiqlariga, o‘z repertuarida qancha ko‘p o‘rin ajratsa uning ijrochiligi tez shuhrat topadi va tez ommalashib ketib, mashhur bo‘ladi. Bunga esa xalq qo‘shiqlarining ohangdorligi, o‘ynoqiligi, samiyiyligi va jo‘shqinligi sabab bo‘ladi.

Qo‘shiq har qaerda, har qanday paytda kishilarga yo‘ldosh bo‘lgan so‘z san‘ati bo‘lib, u hamisha musiqiy xarakter kasb etishi bilan boshqa og‘zaki badiiy ijod janrlaridan farqlanib turadi. Xalq qo‘shiqlari shaklan qisqa va ixcham, obrazlari yorqin, iboralari o‘tkir, jumalari ohangdosh bo‘lgani bois vazn o‘lchovida ravonlik va ohangdorlik hosil qiladi va shular uchun kishi xotirasida tez o‘rnashib qolib, tez tarqaydi. Yengil, ommabop bo‘lgan qo‘shiqlar kuy, ohang ham kasb etadi va asosan kuylab, o‘yin bilan ijro etiladi. Qo‘shiqlar odatda to‘rtliklardan iborat yaxlit band va naqorat ko‘rinishida tuzilgan bo‘ladi. Xalq qo‘shiqlari o‘zining soddaligi, jozibadorligi, musiqaviy ohangdorligi, raqsboqligi tufayli kishi qalbiga va ruhiyatiga tez ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun xalq qo‘shiqlari ijrosida o‘tmishda ham, hozirda ham, ko‘p murojaat qilinadi.

O‘zbek xalq qo‘shiqlari o‘ziga xos ijrochilik usullariga ega. O‘zbek xalq qo‘shiqlari ijrochiligining asosiy belgilari esa quyidagilar ekanligi kuzatiladi:

1. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining barcha janrdagi na‘munalari o‘ziga xos musiqaviy tabiatiga va ijro o‘rniga ega bo‘lib, ular ijrosiga asar mazmuni va g‘oyasi yetarli darajada tasir etadi. Natijada har bir janr o‘z matni, mazmuniga muvofiq keluvchi ohangda (o‘ynoq, quvnoq harakatli kuy bilan yoki hazil, mungli musiqa bilan) kuylanadi.

2. O‘zbek xalq qo‘shiqlari kuy ohanggi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Hatto ularning ayrimlari o‘ziga xos maxsus ritm va ohangda an‘anaviy xarakter ham kasb etadi. Binobarin, allalar, yor-yorlar, kelin salomlar va h.k kabilar o‘zbek xalq qo‘shiqlari hamisha bir xil spesifik ohang bilan kuylanadi.

3. O‘zbek xalq qo‘shiqlari harakat bilan bog‘lanishi yoki bog‘lanmasligi jihatidan raqsli va raqssiz qo‘shiqlar bilan tafsiflanadi.

4. Raqs va kuy o'zbek xalq qo'shiqlarining kengroq ommaviylashuviga hamda eng muhimi, ularning mazmun mohiyatini chuqurroq ochib berishga ta'sir doirasini kengaytirib unga yaqindan yordam beradi.

5. O'zbek xalq qo'shiqlari ijrochiligida musiqa asboblarning o'ziga xos o'rnini va ahamiyati mavjud, biroq hamma xalq qo'shiqlari ham musiqa asboblari jo'rligida kuylanmaydi. Jumladan, mehnat qo'shiqlari va a'za qo'shiqlari hech vaqt musiqa asbobi bilan kuylanmaydi, buning o'ziga xos sabablari bor. Xalq qo'shiqlari ijrochiligida, odatda, rubob, doira(daf), dutor, tanbur, g'ijjak, nay, sunray kabi musiqa asboblardan foydalaniladi. Ba'zi xalq qo'shiqlari faqat va faqat bitta cholg'u asbobi jo'rligida kuylansa, ayrimlari bir nechsa musiqa asbobi bilan ijro etiladi.

6. Xalq qo'shiqlari ijrosiga ijtimoiy muhit ham yetarli darajada o'z ta'sirini o'tkazadi, buning natijasida bir janrdagi qo'shiq boshqa janrdagi qo'shiq o'rnida kuylanadi va janriy ko'chish hodisasi yuz beradi. Yoki xalq qo'shiqlari zamona zayli bilan zamona ruhiga moslab yangicha kuylar jo'rligida ijro etiladi. Lekin shunday bo'lsada, uning ilk ijrosiga xos maxsus ohanggi qisman bo'lsada saqlanadi.

7. O'zbek xalq qo'shiqlarining aksariyati xotin-qizlar tomonidan kuylanadi va yaratiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari ijrochilari gaqarab ham tavsiflanadi. Ya'ni, ular ayollar va erkaklar tomonidan kuylanadigan qo'shiqlar shaklida ikkiga bo'linadi. Yoki kattalar bilan bolalar qo'shiq ijrochiligi ham bir-biridan keskin farqlanadi. Xullas, o'zbek xalq qo'shiqlari o'ziga xos ijrochilik usullariga ega bo'lib, ularning ijrosi hatto yurtimizning turli joylarida turlicha ekanligi bilan diqqatga sazavordir.

Ha do`rsa - do`rsa, do`rsa

Xalq qo'shiqi  
To'stasin Rajabov notaga olgan



Ha do`r - sa - do`r - sa, do`r - sa, O - la - si bo - zor - ga bor - sa Gosh - tu, bi - rinj kel - tir - sa - ye,  
O - na - si pa - zan - da bo`l - sa Gosh - tu, bi - rinj kel - tir - sa - ye, Ho - la - si xo` - ran - da bo`l - sa  
Tugatish uchun.  
Bo - zor - dan ol - dim ma - yiz, Bun - cha bu bax - cha u - ziz. Bu bax - cha - ni  
a - ziz qil - gum O - ta - si ham be - ta - miz. He - ta - miz. He - ta - miz.

Ha do`rsa - do`rsa, do`rsa,  
 Otasi bozorga horsa.  
 Go`shtu - birinj keltirsa - ye,  
 Onasi pazanda bo`lsa.  
 Go`shtu - birinj keltirsa - ye,  
 Bolasi xo`randa bo`lsa.

Ha dika - dika, dikosi,  
 Magazinni viskosi.  
 Olib bersin dadasi,  
 Tikib bersin onasi.  
 Olib bersin dadasi,  
 Kiyib yursin bolasi.

Bozordan oldim poza,  
 Buncha bu bacha toza.  
 Bu bachani toza qilgan,  
 Onasi ham ozoda.  
 Bu bachani toza qilgan,  
 Onasi ham ozoda.

Bozordan oldim mayiz,  
 Buncha bu bachcha aziz.  
 Bu bachchani aziz qilgan,  
 Otasi ham betamiz,  
 Betamiz, betamiz.

#### ADABIYOTLAR:

70. Кадирова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. *Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании*, 1(1), 6-11.
71. Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrastalar. *Monografiya*, 1(1), 120.
72. Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin “white square”. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.
73. Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the “Fergana school of poetry” in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.
74. Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.
75. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.

76. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
77. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
78. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.
79. Akhmedov, B. A. (2024). Dialogue Leading to a Problematic Situation and Its Place In School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 28, 17-21.
80. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic methods in education based on conflict dialogue. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(3), 1-7.
81. Akhmedov, B. A. (2024). Reorganization of teaching manual in higher education in Tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 24, 13-25.
82. Akhmedov, B. A. (2024). Methods Of Improving the Quality of Dissertation Works in The Exact Sciences of The Tashkent Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 39-57.
83. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic dialogue as a response to the challenge of the Epoch. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(1), 1-9.
84. Akhmedov, B. A. (2023). Physics is a Science Forming Knowledge About Health. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 350-355.
85. Тангиоров, И. Х., & Ахмедов, Б. А. (2021). Перспективы развития правового государства. *Политика и общество*, 7(18), 178-186.
86. Axmedov, B. A., & Muxamedov, G. I. (2021). Klaster Mobile DGU 09834.
87. Akhmedov, B. A. (2023). Use of information technology in medicine, history, biology, literature, physical education. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 17-29.
88. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
89. Akhmedov, B. A., & Khimmataliyev, D. O. (2023). The emergence-theoretical aspects of dialogue in education. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(2), 1-7.
90. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
91. Akhmedov, B. A. (2023). Prospects and trends of digital twins in education. *Uzbek Scholar Journal*, 23, 6-15.

92. Akhmedov, B. A., Makhmudova, D. M., & Akhmedjonov, D. G. (2024). Using the Socrates method in improving the quality of education in pedagogical universities. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 2(1), 16-24.